



ABDURAUF FITRATNING “HIND SAYYOHI” ASARIDA BUXORO JAMIJATINING TANQIDI VA ISLOHOT G‘OYALARI

Avezova Anajon Ko‘paysin qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-son o‘zbek va xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchisi

Muzaparov Azizbek Ulugbekovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi” asarida Buxoro amirligi davridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayot tanqidiy yoritilgan. Asarda ulamo, umaro va fuqaro o‘rtasidagi tabaqalanish, ilm va taraqqiyotga munosabat, jaholat va ma’rifat masalalari chuqur tahlil qilinadi. Fitratning g‘oyalari orqali jamiyatdagi muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda milliy uyg‘onish ruhi ochib beriladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается произведение Абдурауфа Фитрата «Индийский путешественник», в котором критически освещается политическая, социальная и культурная жизнь Бухарского эмирата. Автор анализирует социальное расслоение между улемами, эмирами и народом, отношение к науке и прогрессу, а также проблемы невежества и просвещения. Через идеи Фитрата раскрываются пути реформ и духовного возрождения общества.

Abstract. This article examines Abdurauf Fitrat’s work “The Indian Traveler”, which provides a critical portrayal of the political, social, and cultural life of the Bukhara Emirate. The author analyzes the social stratification among scholars, rulers, and common people, as well as the society’s attitude toward science and progress. Through Fitrat’s ideas, the article highlights the causes of ignorance, the need for enlightenment, and the spirit of national awakening and reform.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, “Hind sayyohi”, islohot, ma’rifat, jaholat, Buxoro amirligi, tanqid, ulamo, umaro, milliy uyg‘onish.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, «Индийский путешественник», реформа, просвещение, невежество, Бухарский эмират, критика, улемы, эмиры, национальное возрождение.

Keywords: Abdurauf Fitrat, The Indian Traveler, reform, enlightenment, ignorance, Bukhara Emirate, criticism, clergy, rulers, national revival.

Kirish

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ma’naviy hayotida yangi bosqich boshlangan edi. Bu davrda jadidchilik harakati xalqni jaholatdan chiqarish, ilm va taraqqiyot sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Ana shunday ma’rifatparvarlardan biri — Abdurauf Fitrat bo‘lib, u o‘zining “Hind sayyohi” (1912-yil, Istanbul) asari orqali jamiyatdagi illatlarni



keskin tanqid ostiga olgan. Fitrat asarni yozish orqali Buxoro amirligi ijtimoiy tuzumini, ulamolar va umarolarning faoliyatini xalq ko'z o'ngida ochib beradi.

Muhokama va natijalar:

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi

“Hind sayyohi” qissasi shaklan sayohat taassurotlari tarzida yozilgan bo'lsa-da, mazmunan chuqur falsafiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Fitrat asarda Buxoro jamiyatini uch toifaga: ulamo, umaro va fuqaroga ajratadi. Bu tasnif orqali u jamiyatdagi adolatsizlik, jaholat va islohsizlikning ildizlarini ochib beradi.

Ulamolar — ilm va ma'rifat o'rniga riyo va manfaat yo'lini tutgan toifa sifatida tasvirlanadi. Fitrat ularning diniy bilimdan yiroq, hadis va oyatlarni noto'g'ri talqin qiluvchi, talabalardan pora oluvchi hamda kitoblarni o'z mulkiga aylantiruvchi holatlarini tanqid qiladi. Ulamolar o'zlarini “zohid” deb ko'rsatsalar-da, aslida boylikka o'ch, johil kishilar sifatida gavdalanadi.

Muallif shuningdek, Buxoroda tibbiyot maktabi — Dorush-shifo yo'qligini alohida qayd etadi. Natijada aholi ilmsiz tabiblardan davo izlab, sog'lig'ini yo'qotadi, bolalar o'limi ko'payadi. Fitrat Yevropa mamlakatlarida ilm-fan rivojlanib, xalq farovonlikka erishayotgan bir paytda, musulmon diyorida zamonaviy ilmlarga “kufr” sifatida qaralayotganini achchiq haqiqat deb ko'rsatadi.

Umarolar esa muallif nigohida xalq dardidan bexabar, o'z mansab va mol-dunyo ortidan quvvuvchi kishilardir. Ular millatning yuksalishi haqida o'ylamaydilar, ulamolarning so'zlariga so'zsiz bo'ysunib, fuqarolarga zulm o'tkazadilar.

Fitratning xalq va islohot haqidagi qarashlari

Fitrat nafaqat hukmdorlar va ulamolarni, balki oddiy xalqni ham befarqlikda ayblaydi. U “taqdiri ilohiy” degan tushunchaga suyanib, o'z ahvolini o'zgartirishga urinmayotgan kosib va dehqonlarni tanqid qiladi. Asarda millatning g'ururini, mehnatsevarlikni, hunar va san'atni qadrlash g'oyasi ilgari suriladi. Fitrat xalqni ilmga, taraqqiyotga va o'z kuchiga ishonishga da'vat etadi.

U oddiy alocha to'qish jarayonini ham ramziy ma'noda qo'llab, har bir inson o'z mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha olishini ko'rsatadi. Shunday qilib, “Hind sayyohi” nafaqat tanqidiy, balki islohotchi ruhdagi asar sifatida qadrlanadi.

Xulosa

Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi” asari o'z davrining eng dolzarb ijtimoiy masalalarini ko'tarib chiqqan, xalqni uyg'onishga, ilm va ma'rifat sari intilishga chaqirgan asardir. Fitrat Buxoro amirligi davridagi jaholat, adolatsizlik va beparvolikni fosh etgan holda, ma'rifat, milliy g'urur va islohot g'oyalarini ilgari suradi. Asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, milliy ongini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat (1912) A. Hind sayyohi. — Istanbul.
2. Karimov (2008) I. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat.
3. Abdullayeva (2017) M. Fitrat adabiy merosi va jadidchilik harakati. — Toshkent: Fan.
4. Sodiqov N. (2006) O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi.
5. Qodirova S. (2020) Fitrat asarlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. — Toshkent: TDPU.

